

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 58 404,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,5 % ga yetdi.

2023- yilda Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	49 692,3	58 404,5	105,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	47 435,5	56 260,7	104,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2 256,8	2 143,8	106,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	47 435,5	56 260,7	104,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 642,6	23 556,4	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 478,2	13 506,9	107,1
sanoat	8 234,7	9 648,0	107,1
qurilish	3 243,5	3 858,9	107,0
xizmatlar	16 314,7	19 197,4	104,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 234,3	3 819,0	106,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 477,3	2 987,3	109,4
boshqa xizmat tarmoqlari	10 603,1	12 391,1	101,9



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 585,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,7 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,5	96,3
mahsulotlarga sof soliqlar	4,5	3,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	41,4	41,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,2	24,0
sanoat	17,4	17,1
qurilish	6,8	6,9
xizmatlar	34,4	34,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,8	6,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	22,4	22,0



2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,9 % ni, sanoat tarmog‘i 17,1 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 34,1 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil

4,5 %



41,4 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

17,4 %

Sanoat

6,8 %

Qurilish

34,4 %

Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

41,9 %

Sanoat

17,1 %

Qurilish

6,9 %

Xizmatlar

34,1 %



3,7 %


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2022- yilda – 2,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2022- yilda – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022- yilda – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2022- yilda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilda – 0,6 f.p.) ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,9 %), sanoatda – 107,1 % (17,1 %), qurilishda – 107,0 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 104,0 % ni (34,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,5 % (6,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,4 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,9 % dan (22,0 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,0 % va xizmatlar sohasida – 113,2 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 38 484,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 32 039,8 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,4 % ni (2022- yilda – 67,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

32 039,8

67,5 %

2023- yil

38 484,3

68,4 %

